

BUXORO YOSHLARINING INTELLEKTUAL VA KREATIV SALOHIYATI: KELAJAKNI BUNYOD ETISHDAGI O'RINLARI

Xaydarova Lobar Xalimovna

Buxoro davlat universiteti Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

Аннотация. Mazkur ilmiy maqolada Buxoro viloyati yoshlarining intellektual va kreativ salohiyatini rivojlantirish yo'llari, mavjud imkoniyatlar, ularning hudud va mamlakat kelajagini bunyod etishdagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishi, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi va umuman, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishidagi o'rni keng qamrovli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro yoshlari, intellektual salohiyat, kreativlik, yoshlar siyosati, innovatsiya, tadbirkorlik, zamonaviy bilimlar, bandlik, hududiy rivojlanish, kelajak.

Аннотация. В данной научной статье анализируются пути развития интеллектуального и креативного потенциала молодежи Бухарской области, имеющиеся возможности, их роль и значение в построении будущего территории и страны. В статье подробно освещается роль молодежи в приобретении современных знаний, разработке инновационных идей, налаживании предпринимательской деятельности и в целом в содействии социально-экономическому прогрессу.

Ключевые слова: молодежь Бухары, интеллектуальный потенциал, креативность, молодежная политика, инновации, предпринимательство, современные знания, занятость, территориальное развитие, будущее.

Annotation. This scientific article will analyze the ways of developing the intellectual and creative potential of the youth of the Bukhara region, the available opportunities, their role and importance in the development of the future of the territory and the country. The article covers the role of young people in the acquisition of modern knowledge, the development of innovative ideas, the establishment of entrepreneurial activity and, in general, the contribution to socio-economic development.

Keywords: Bukhara youth, intellectual potential, creativity, Youth Policy, Innovation, Entrepreneurship, modern knowledge, employment, territorial development, future.

Kirish. Har bir davlat va jamiyatning istiqboli uning yoshlariga, ularning intellektual va kreativ salohiyatiga bog‘liq. Buxoro viloyati, tarixiy boy merosga ega bo‘lish bilan birga, zamonaviy rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu jarayonda viloyat yoshlarining hal qiluvchi o‘rni bor. Ularning bilimli, zamonaviy ko‘nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan va kreativ yoshlar sifatida tarbiyalanishi, Buxoroning kelajak taraqqiyotining asosiy kafolatidir. Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyatini shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va ularning bunyodkorlikdagi o‘rnini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning zamon talablari darajasida ta’lim olishi, o‘tib-ulg‘ayishi, o‘z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o‘zining qat’iy hayotiy e’tiqod va qarashlariga ega bo‘lgan, “halollik vaksinasi” bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta’sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda¹.

Mavzu doirasidagi ilmiy mulohazalarni o‘rganish davomida intellektual salohiyat va kreativ salohiyat tushunchalariga izoh berishni lozim topdik.

Intellektual salohiyat² (Intellectual Capacity/Potential): Bu shaxsning yoki guruhning fikrlash, tushunish, o‘rganish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammolarni hal qilish, axborotni qayta ishlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash kabi kognitiv qobiliyatlarini bildiradi. Intellektual salohiyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ aqliy qobiliyatlar: xotira, diqqat, idrok, tasavvur, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlari.
- ✓ mantiqiy tafakkur: sabab-oqibatni aniqlash, tizimli o‘ylash, xulosalar chiqarish.

¹ Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI23-son qarori

² Mualliflik yondashuvi

- ✓ bilim va tajriba: o'rganilgan nazariy bilimlar va amaliy tajribalar asosida qaror qabul qilish.
- ✓ o'rganish qobiliyati: yangi axborotlarni tez va samarali o'zlashtira olish.
- ✓ muammolarni hal qilish: turli murakkab vaziyatlarda optimal yechimlar topa olish.

2. Kreativ salohiyat³ (Creative Capacity/Potential): Bu shaxsning yoki guruhning yangilik yaratish, original g'oyalarni shakllantirish, mavjud narsalarga yangicha yondashish, noan'anaviy yechimlar topish, tasavvur kuchini ishga solish kabi ijodiy qobiliyatlarini bildiradi. Kreativ salohiyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ original fikrlash: noto'g'ri, o'ziga xos va yangi g'oyalarni shakllantira olish.
- ✓ tasavvur kuchining rivojlanganligi: mavhum narsalarni tasavvur qila olish va g'oyaviy modellar yaratish.
- ✓ moslashuvchanlik (fleksibility): turli yo'nalishlarda fikrlay olish, o'z fikrini o'zgartira olish va yangi yondashuvlarga ochiq bo'lish.
- ✓ oqimchanlik (fluency): qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalar yoki yechimlar taklif qila olish.
- ✓ orginallik (originality): o'ziga xos, boshqalarnikidan farq qiluvchi yechimlar yaratish.
- ✓ tafsilotlarga e'tibor (elaboration): g'oyalarni batafsil ishlab chiqish va mukammallashtirish.
- ✓ t risk qabul qilishga tayyorlik: yangi va noaniq vaziyatlarda harakat qilishdan qo'rqmaslik.

Demak, "Intelektual va kreativ salohiyat" deganda, shaxsning nafaqat bilimli va tushunchaga ega bo'lishi, balki shu bilimlar va tushunchalardan foydalanib, yangi, original va samarali yechimlar, g'oyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni yarata olish qobiliyati tushuniladi.

Zamonaviy dunyoda ayniqsa, bu ikki salohiyatning birgalikda rivojlanishi juda muhim hisoblanadi. Chunki faqat bilimli bo'lish yoki faqat kreativ fikrlashning o'zi kamlik qiladi. Bilimni ijodiy qo'llash orqali haqiqiy yangilik va taraqqiyotga erishish mumkin. Aynan shu sababli ta'lim, biznes va jamiyatning boshqa sohalarida "intelektual va kreativ salohiyat"ga katta e'tibor qaratilmoqda.

³ Mualliflik yondashuvi

Yoshlarning intellektual salohiyati ularning bilim, ko'nikma va tafakkur tarzini o'z ichiga oladi. Buxoro yoshlarining bu boradagi salohiyatini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim (1-rasmga qarang).



1-rasm. Buxoro yoshlarining salohiyatini oshirish yo'nalishlari

Ushbu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos alohida imkoniyatlarga ega bo'lib, quyidagicha mazmunni aks ettiradi:

1. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish:

-Zamonaviy o'quv dasturlari: Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida fanlarni chuqur o'rganish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangicha uslub va dasturlarni joriy etish.

-IT va zamonaviy texnologiyalarga o'rgatish: Dasturlash, robototexnika, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarda yoshlarni tayyorlash. Buxoroning turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli yechimlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori.

-Chet tillarni o'rganish: Jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish va zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish uchun ingliz va boshqa yetakchi tillarni o'rganishni rag'batlantirish.

2. Ilmiy-ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash:

-Ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish: Maktab va universitetlardagi ilmiy to'garaklar, loyihaviy faoliyatlarni faollashtirish. Yosh olimlar va izlanuvchilarni rag'batlantirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yaratish.

-Ilmiy konferensiyalar va seminarlar: Buxoro yoshlarining ilmiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida doimiy ravishda ilmiy anjumanlar, seminarlar va "krugliy stol"lar tashkil etish.

-Iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash: Iqtidorli o'quvchi va talabalarni aniqlash, ularga grantlar, stipendiyalar va ijodiy muhit yaratib berish.

Buxoro yoshlarining kreativ salohiyati va innovatsion tafakkuri jahon talablaridan kelib chiqqan holda integrativ ta'lim dasturlarini joriy etish orqali rivojlantirib borilmoqda.

Ma'lumki, kreativlik – yangi g'oyalar, yechimlar va mahsulotlar yaratish qobiliyati bo'lib, ushbu qobiliyat bugungi globollashuv jarayonida barcha uchun muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Buxoro yoshlarining kreativ salohiyatini oshirish viloyatning innovatsion rivojlanishi uchun zarur talablardan biri hisoblanib, bunda:

-innovatsion ekotizimni yaratish

-kreativlikni rag'batlantiruvchi muhit yaratish

1. Innovatsion ekotizimni yaratish:

-startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash: yosh tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy, maslahat va inkubatsion dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash. buxoroda turizm, it, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik sohalarida yangi mahsulot va xizmatlar yaratishga e'tibor qaratish.

-innovatsion markazlar va texnoparklar: yoshlarning o'z g'oyalarini amalga oshirishi uchun zarur moddiy-texnik baza (laboratoriyalar, kovorking markazlar, 3d printerlar va h.k.) yaratish.

-g'oya va tanlovlari: yoshlarni muayyan muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan kreativ tadbirlarni tashkil etish.

2. Kreativlikni rag'batlantiruvchi muhit yaratish:

-San'at va madaniyatga e'tibor: Buxoroning boy madaniy merosidan ilhom olgan holda, yosh rassomlar, musiqachilar, yozuvchilar va dizaynerlarni qo'llab-quvvatlash.

-Muammoli yechimlarga yo'naltirilgan loyihalar: Mahalliy muammolarni (masalan, ekologiya, kommunal xizmatlar, madaniy obyektlarni saqlash) hal etishga qaratilgan kreativ loyihalarni rag'batlantirish.

Kelajakni bunyod etishdagi yoshlarning o'rni beqiyos bo'lib, XXI asrda yoshlarning faol harakati ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir. Shu jumladan, Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyati viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida hal qiluvchi o'rin tutadi. Bular quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Tadbirkorlik va bandlik: Yoshlarning o'z biznesini boshlashi, yangi ish o'rinlari yaratishi viloyat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Xususan, Buxoroning turizm, milliy hunarmandchilik, IT va xizmat ko'rsatish sohalarida yosh tadbirkorlarning o'rni katta.

2. **Innovatsion rivojlanish:** Yoshlarning yangi g'oyalari va tashabbuslari Buxoroning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va zamonaviylashtirishga turtki beradi.
3. **Madaniy va ijtimoiy taraqqiyot:** Yoshlar zamonaviy bilimlar, Yevropa va Osiyo an'analarini uyg'unlashtirgan holda, Buxoroning madaniy jamoatchiligini yangi bosqichga olib chiqadi, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi.
4. **Hududiy rivojlanish:** Viloyatning chekka tumanlaridagi yoshlarning ham intellektual va kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni rag'batlantirish orqali hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini kamaytirish mumkin.
5. **Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish:** Yoshlar zamonaviy vositalar (sotsial tarmoqlar, media) orqali Buxoroning boy tarixiy-madaniy merosini targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish, har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish, maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish, “Top-500” ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgan.

Xulosa. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida sog‘lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchdir. Yoshlarga oid davlat siyosati avvalo har bir davlatning ichki siyosati bo‘lib, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosati hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Bu sohadagi izchil va hayotchan islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayondir.

Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyati – bu viloyatning bugungi kuni va ertangi kunining asosidir. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularning g‘oyalari va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion va kreativ muhit yaratish – bu davlat va hudud rahbariyatining asosiy vazifalaridan biridir. Yoshlarning salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarish orqali Buxoro o‘z tarixiy o‘rnini mustahkamlab, zamonaviy sivilizatsiyada yanada yorqinroq



kelajakni bunyod eta oladi. Yoshlarning intellektual va kreativ rivoji nafaqat viloyat, balki butun mamlakat taraqqiyotiga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI23-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Yoshlar siyosati asoslari to'g'risida"gi Qonunlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ishlash, ularning bandligini ta'minlash, intellektual va kreativ salohiyatini yuzaga chiqarishga doir farmon va qarorlari.
4. Buxoro viloyati hokimligining yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid davlat dasturlari.
5. "ZiyoNET", "Yoshlar IT-Markazlari" va boshqa yoshlarga oid platformalar faoliyati tahlili.